ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-5

UDC: 81’255.2/4=512.133:821.111

KALAMBUR MUAMMOSING O‘RGANILISHIGA DOIR TURLI YONDASHUVLAR SHARHI VA TAHLILI

Mizrabova Jeren Ismailovna

dotsent (DSc) *Buxoro davlat universiteti*

(e-mail: mizrabovajerenismailovna@mail.ru)

Annotatsiya. *Mazkur maqola kalmbur muammosing o‘rganilishiga doir turli yondashuvlar sharhi, U.Shekspirning dramalaridagi kalambur kabi uslubiy vositasining o‘ziga xos lingvopoetik xususiyatlari va ularnining tarjimada aks ettirilishi murakkabliklari muammolarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Kalamburni tadqiq etish, mazkur stilistik vositasi tarjimasida qo‘llaniladigan turli tarjima usullari va U.Shekspirning asarlaridan so‘z o‘yini tarjimasi tahlillari keltirilgan. Kalambur vositasini rus va o‘zbek tillarida qayta yaratish jarayoni bilan bog‘liq murrakabliklar o‘rganilgan.*

Ilmiy maqolada Uillyam Shekspir uslubiga hos kalamburning tuzilishidagi o‘ziga xos hususiyatlari jumladan, omonimik, polisemik, yoki antonimik kalamburlari lingvopoetik jihatlarining rus va o‘zbek tarjimalarida qayta yaratilishining muammolari o‘rganilgan. Asliyat kalamburida voqelangan obrazlar, konnotasiyalar, fon, muallif uslubi yohud muallif kalamburining shakli, fonetik va grafik hususuyatlarining tarjimada qayta yaratilishdagi muammolari o‘rganilgan.

Tayanch tushunchalar: *Shekspir, freym, pun, lingvopoetik tahlil, stilistik-konvergentsiya, translation, omonimiya, polisemiya, miniatyura, dialog, monolog, davomiy kalamburlar, alliteratsiya, xiazm, antiteza.*

Аннотация. *Настоящая статья посвящена изучению разных подходов в исследовании проблемы каламбура, своеобразных лингвопоэтических особенностей каламбура в драмах У.Шекспира и проблем в трудностях способов его воссоздания в переводе. Обобщить основные направления факторов выявления в изучении каламбура и проблематику перевода данного стилистического приёма, рассматриваются некоторые способы перевода, приводится анализ перевода игры слов из произведений У. Шекспира, рассматриваются сложности и основные приёмы связанные с передачей каламбура на русский и узбекский языки.*

В научной статье изучаются структура каламбуров свойственных стилю У.Шекспира проблемы воспроизведения лингвопоэтических аспектов каламбуров построенных на омонимии, полисемии, или антонимии в узбекских и русских переводах. Также, исследованы проблемы воспроизведения своеобразия образов, коннотаций, фона, стиль автора или формы каламбура автора, фонетических и графических свойств оригинала в переводе.

Опорные понятия. *Шекспир, фрейм, каламбур, лингвопоэтический анализ, стилистическая конвергенция, перевод, омонимия, полисемия, миниатюра, диалог, монолог, продолжительные каламбуры, аллитерация, хиазм, антитеза.*

Abstract. *This article is devoted to the study of different approaches to the study of the pun problem, peculiar linguistic and poetic features of the pun in W. Shakespeare's dramas and the problems in the difficulties of ways of recreating it in translation. Also, generalization the main directions of the factors of identification in the study of a pun and the problems of translating this stylistic device, some methods of translation are considered, analysis of the translation of a word*

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-5

play from the works of W. Shakespeare are given, the difficulties and basic techniques associated with the transformation of a pun into Russian and Uzbek are studied.

The scientific article studies the structure of puns inherent in the style of W. Shakespeare, the problem of reproducing linguo-poetic aspects of puns built on homonymy, polysemy, or antonymy in Uzbek and Russian translations. Also, the problems of reproducing the originality of images, connotations, background, the style of the author or the form of the author's puns, the phonetic and graphic properties of the original in translation are investigated.

Supporting concepts: *Shakespeare, frame, pun, linguistic-poetic analysis, stylistic convergence, translation, homonymy, polysemy, miniature, dialogue, monologue, long puns, alliteration, chiasmus, antithesis.*

Kirish. Ma'lumki, muloqotda qatnashuvchi so'zlarning mazmun-ahamiyatini idrok etishdagi intilshlar mazkur hodisaning mohiyatnini tashkil etadi. Biroq, bunday jarayonlardagi barcha ma'lulomotlarning birdek idrok etilishining ehtimoli turlicha. Shuningdek, ma'lum bir muallif o'z ijodi mazmunning okkazionalligi xususiyatlarini ta'minlash maqsadida atayin kalambur va so'z o'yini unsurlaridan foydalanadi. Xususan, hozirgi davrda turlicha diskurslardagi har xil ko'rinishdagi lisoniy o'yinlarning salmog'i ortib bormoqda.

So'z san'ati mahoratini ro'yobga chiqarishda esa har bir muallif o'zi niyat qilgan ta'sirga erishmoqlik, lisoniy birliklarning ma'noviy doirasi va estetik ta'siri imkoniyatlarini yanada kengaytirish, ijodidagi ifodalanuvchi manzara va obrazlarning kitobxon idrokidagi talqinlaring tasodifiyligini ta'minlash kabi maqsadlarda tilning turli stilistik yoki ifodali vositalaridan unumli foydalanadi. Binobarin, ma'lum bir matnda qatnashuvchi polisemik unsurlarning turli mazmunlarining joriylanishi yoki kontekstda qatnashuvchi birliklar ma'noviy o'yinlarnining ziddiyatli munosabatlarini ta'minlay oluvchi bir nechta stilistik vositalar mavjud bo'lib, kalamburni ham shular qatorida e'tirof etish mumkin. Shuningdek, Shekspir dramalaridagi kalambur vositasi ham o'zining turli stilistik vazifalarida qatnashgan. Kalamburning keng ma'lumotni ixcham va nostandart shaklda ifodalay olish xususiyati kitobxon diqqatini jalb etadi. Shu bilan bir qatorda, o'quvchi kalamburning murakkab mazmunini idrok etib va uning asar konteksti miqyosidagi doirasini payqagandagina kalamburdan estetik zavq oladi.

Ma'lumki, kalambur va unga shaklan o'xshash bo'lgan so'z o'yini bilan o'rtasidagi mushtaraklik va tafovutlari masalalari hamon o'z echimini kutmoqda. Bizning tadqiqotimiz ham Shekspir dramalaridagi kalamburning o'rni, uning tabiati va mazkur stilistik vositasining lingvopoetik xosliklarining o'zbek va rus tarjimalarida qayta yaratilshi xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan. Zero, kalamburning boshqa stilistik vositalar bilan o'rtasidagi o'xshashlik va tafovutlarni aniqlash maqsadida mazkur uslubiy vosita zamiridagi lingvokognitiv xususiyatlar ya'ni, kalamburlarning turli ma'noviy doiralarini hosil etuvchi freymlar ifodalari asoslarida o'rganish maqsadga muvofiqdir.

O'rganish metodlari. Izlanishlarimiz davomida I.R.Galperinning kalamburga keltirgan ta'rifidan kelib chiqib mazkur uslubiy vositani asosiy struktur ifodalarining shartlanish xususiyatlarini ya'ni, vositaning tuzilishiga doir uning alohida so'z yoxud erkin so'z birikmasi asosida voqelanuvchi kalamburlar tadqiq etildi.

Kalambur vositasi stilistika fanidan tashqarida "so'z o'yini" hodisasiga tenglashtirilganini kuzatishimiz mumkin. Masalan, Longman lug'atida "Kalambur bu talaffuzi o'xshash ammo, mazmunlari tafovut etuvchi ko'p ma'noli so'z yoki so'zlarning komik tarzda ko'llanilishi = so'z

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-5

o‘yini[1]”. Shuningdek, hajviyot kategoriyalaridan biri yumor hodisasi doirasida ham kalambur va so‘z o‘yini bir – biriga yaqin tushunchalar sifatida o‘rganilib kelinmoqda. Masalan, Gr. Ritchining ta’kidlashicha “Hazilning eng oddiy shakllaridan biri bu, odatda “so‘z o‘yini” sifatida e’tirof etiluvchi kalambur vositasidir[2]”.

Ma’lumki, maxsus lingvistik izlanishlarda, ayniqsa, stilistika fanida kalambur nafaqat qandaydir nutqiy ibora yoki hazil balki, stilistik vosita sifatida ham o‘rganilib kelmoqda. I.R.Galperinning ta’kidlashicha, stilistika fani “izohli vositalarni - ularning turli uslubdagi nutq ko‘rinishlarida qo‘llanilishi, polifunktsionnalligi” va “turli badiiy uslublarda tiling neytral va izohli faktlarining umumiylashtirilgan tipik voqelanishi[3]” stilistik vosita sifatidagi potentsiali imkoniyatlari nuqtai nazaridan kelib chiqib o‘rganadi.

O‘z navbatida, Ye.G.Belyaeva ham stilistik vositalarning shakllanishidagi o‘ziga xosliklarini quyidagicha izohlaydi, “nutq shakllaring matndagi shartlanishi hamda ta’siri xususiyatlaridan kelib chiqib ularni ma’lum bir turlarga ajrata olamiz va *aynan bir hil yoki o‘xshash stilistik ta’sirga ega* bo‘lgan tiplarni alohida bir kontekstual qurilishiga ega bo‘lgan guruhlarning o‘ziga xos ifodasi yoki algoritmini ishlab chiqish mumkin[4]”. Shuningdek, ma’lum bir lingvistik qurilmaning stilistik vosita sifatida shakllanishi va gapiruvchining aniq bir vaziyatda o‘zi maqsad etgan pragmatik ta’sirga erishmog‘i uchun, avvlambor, uning stilistika fanining o‘ziga xos qoidalariga oid voqelanishi zarurati seziladi. O‘z navbatida, kalambur kabi stilistik vositasi ham aynan o‘tkirlikka asoslangan yumoristik ta’sirni belgilovchi bisotsiativ kontekstning shartlanishida xizmat qiladi.

Ma’lumki, jahon tilshunosligida kalambur boshqa stilistik vositalar, masalan, so‘z o‘yini, zevgma yoki paronomaziya kabilar bilan o‘zaro bog‘liq vositalar qatorida o‘rganilgan. Vaholanki, tilshunos olim A.V.Prixod’ko “so‘z o‘yini bilan taqqoslaganda kalambur ancha murakkab hodisa bo‘lib uning shartlanishida qatnashuvchi til vositalarining mazmuni rejasining izoh rejasi bilan nomutanosib” ekanligi va “har bir so‘z o‘yini ham kalambur bo‘la olmasligini[5]” ta’kidlaydi.

Shu bilan bir qatorda, bugungi kunda stilistika fanida kalambur va so‘z o‘yini tushunchalarini ajratishga bo‘lgan intilishlar tobora yaqqolashib bormoqda. Ba’zi tilshunoslar tomonidan kalamburning alohida bir ko‘p ma’noli birilkning bir nechta mazmunlari o‘yinlariga asoslanishi, shuningdek, so‘z o‘yinida esa bir nechta o‘xshash yoki shaklan bir hil, ammo mazmunlari har hil birliklarning o‘zaro munosabatidagi o‘yinlarda namoyon bo‘lishi to‘g‘risida keltirilgan e’tiroflari fikrimizning dalilidir. Xususan, A.S.Djumanov kalambur so‘z o‘yiniga yaqin hodisa bo‘lsa-da, ammo ular sinonimik tushunchalar emasligini ta’kidlaydi. Chunki, “so‘z o‘yinida so‘z juftliklarning ishtiroki taqozo etiladi masalan, omonimlarlarning o‘zaro munosabatlari ham so‘z o‘yiniga asos bo‘la oladi”, shuningdek, “Kalambur esa nafaqat so‘zlar ishtirokini balki, masalan, frazeologizmlarni qayta tushunish oqibatida ham yuzaga kelishi mumkin[6]”. Tadqiqotchining bu kabi talqinlarida bir-biriga yaqin bo‘lgan vositalarni shakily belgilariga oid ya’ni, lisoniy o‘yinlaridagi bitta so‘zning turli mazmunlarining ishtiroki (kalambur) yoki bir nechta so‘zlarning jalb etilishiga (so‘z o‘yini) qarab

[1] Longman Dictionary of Contemporary English. – Pearson, 2007. p. 150.
[2] *Gr. Ritchie.* The Linguistic Analysis of Jokes. – London and New York: Routledge, 2014. p. 109.
[3] *Гальперин И.Р.* Очерки по стилистике английского языка. – М.: Изд-волитературы на иностранных языках, 1958. с. 47.
[4] Беляевская Е.Г. Моделирование стилистических приемов в дискурсе //Вестн. Моск. гос. лингвист. ун-та: вып. 17 (677). Сер. Языкознание. – М.: МГЛУ, «Рема», 2013. с. 8.
[5] Приходько В.К. Каламбур и приемы его создания в произведениях Н.А. Тэффи: диссертация … канд. филол. наук. — Москва, 1998. с. 192.
[6] Джанумов А.С.Каламбур и его функционирование в двуязычной ситуации: диссертация ... канд. филол. наук. – М., 1997. с. 116.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-5

ajratishga bo‘lgan intilishlarini kuzatish mumkin. Tilshunos olima L.A.Sazonova esa kalambur va so‘z o‘yini hodisalarini ularning semantik asoslari va sintaktik tuzilishiga oid xususiyatlaridan kelib chiqib ajratadi. Shuningdek, olimaning ta’kidlashicha so‘z o‘yini vositasi undagi birliklarning tashqi belgilarning o‘xshashligi yoki bir xilligi natijasida, ma’lum bir birilikning mazmuni doirasining boshqasining mazmun doirasi bilan o‘zaro semantik to‘qnashuvida yuzaga kelishi mumkin. Semantika nuqtai nazardan kalambur bu “favqulodda nomutanosib bo‘lgan turli manzaralar qorishmasining noan’anaviy uyushgan xolatda idrok etiluvchi” vositadir, shuningdek, so‘z o‘yinida esa “tasavvurlar qorishmasi o‘rnida ularning bosqichma-boqich almashinuvi kuzitiladi[7]”. Tahlilimizdagi vositalar o‘rtasidagi bunday semantik tafovutlarularning sintaktik tuzilishini belgilab bermoqda: agarda, so‘z o‘yinida “ketma-ketlikda idrok etiluvchi har bir mazmun doirasi o‘zining alohida ifodasiga ega” bo‘lsa, “kalamburda esa idrok etiluvchi turli mazmuniy doiralar bitta so‘z ifodasida baravariga aralashtirilib yuboriladi[8]”.

Hozirgacha lingvistika sohasida kalambur kabi stilistk vositasini o‘rganishga oid alohida bir yondashuv ishlab chiqilmagan. Ma’lumki, 20 chi asrning ikkinchi yarmida jahon tilshunosligida kalambur muammosi ko‘plab olimlarning e’tiborini jalb etgan va bu sohadagi izlanishlar mazkur vositaning shakllanishi va stilistik xususiyatlarini o‘rganishdagi poydevorini tashkil eta olgan. Biroq, 20 asrning oxirlari va hozirgi davrda kalambur vositasining boshqa ya’ni, vazifaviy jihatlari va tarjimasi muammolarini o‘rganishga bo‘lgan intilishlar yuzaga kelmoqda. Xususan, O.E.Voronichev kalamburni tadqiq etishga bag‘ishlagan ishlarida mazkur vositani unga yaqin bo‘lgan hodisalardan ajratib uning vazifaviy-pragmatik aspektlarini o‘rganadi va kalamburga oid quyidagicha ta’rifini keltiradi: kalambur bu – “…o‘zida fonoassotsiativ aloqadorlikdagi asoslarga ega, keskin ziddiyatlar o‘rtasidagi tafovutlar tebranishlari yoki mazmunlardagi o‘zaro qarama-qarshi bo‘lgan leksik dominantlarning (ko‘p ma’noli, omonimik yoki paronimik so‘zlar) semantik ta’siri maydonlarini mujassam etuvchi *turli stilistik vositalar orqali ifodalanishi mumkin* bo‘lgan ekspressiv nutqning sinkretik hodisasidir[9]”. Shunigdek, V.K.Prixod’ko ham kalamburning tuzilishi va vazifalari muammolariga bag‘ishlagan tadqiqot ishida vositaga oid quyidagicha ta’riflarini keltiradi: Kalambur bu - “ma’lum bir kontekstda ma’noviy o‘yinlar va turli stilistik maqsadli ohangdosh so‘zlardan, bitta so‘zning ikki yoki undan ortiq mazmunlarning faollashuvi yoki turli so‘zlarning o‘xshash talaffuzlaridan atayin yoki beixtiyor ikki ma’nolilikni yoxud komik ta’sirni ta’minlash maqsadida qo‘llaniluvchi nutq shaklidir[10]”. O‘z izlanishlarida V.K.Prixod’ko rus badiiy adabiyoti materiallari misolida kalamburning asosiy ikkita, ya’ni, polisemantik (turli izohli va obrazli vositalar hamda nutq shakllariga asoslangan) va frazeologik (frazeologik birliklarga asoslangan) ko‘rinishlarini belgilab bergan hamda kalambur birligi bilan kontekstning aloqadorligi masalalirini yoritishga harakat qilgan. Xususan, tilshunos olima ham o‘rgangan kalamburlarinig aksariyati turli stilistik vositalar bilan aloqadorlikda yuzaga keluvchi *konvergent* tabiatga ega ekanligini ta’kilaydi.

Shuningdek, N.V.Yakimenko kalambur matni yadrosidagi mavjud unsurlarning barchasi ishtirok etishi yoki ularning ba’zilari implitsit holatda ham qatnashishi mumkinligini ta’kidlaydi. Masalan:

---

[7]Сазонова Л.А.Закономерности передачи каламбура при переводе художественной литературы: диссертация ... канд. филол. наук. – М., 2004. с. 62.

[8] Ko‘rsatilgan manba. 2004, с. 62.

[9]Вороничев О.Е. Каламбур как феномен русской экспрессивной речи: диссертация … доктора филол. наук. – Москва, 2014. с. 465.

[10]*Приходько В*.К. Каламбур и приёмы его создания в произведениях Н.А. Тэффи: диссертация … канд. филол. наук. - Москва, 1998. с. 192.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-5

Where did the King Arthur go for entertainment? To a nightclub - knight club.) Qirol Artur vaqtichog‘lik qilish uchun qayerga bordi? Tunggi klubga (ritsarlar klubiga, uyushmasiga)).

Xususan, mazkur tadqiqot ishida N.V.Yakimenko kalambur o‘girmasida mutarjim uchun asosiy muammo bo‘lib hisoblangan o‘giriluvchi tilda ingliz tilidagi kalamburiga mos ekvivalentining mavjud bo‘lmaganligi masalasi ham o‘rganilgan. Masalan, xuddi shu muammoga oid keyingi board – “doska, taxta” va board – “komissiya, muvaqqat, qo‘mita” kabi omonimlarida qurilgan kalamburi kontekstining rus tiliga amalga oshirilgan tarjimalarining quyidagicha tahlillari[11]ni keltirgan. Ingliz tilidagi mazkur birlikning rus tilida (ma’noviy tovlanishlar va tafovutlarnini teng qamrovli) ekvivalentining mavjud bo‘lmaganligi tufayli M.K.Sebrikova o‘z o‘girmasida uning so‘zma-so‘z tarjimasini keltiradi va N.V.Yakimenkoning fikricha bu holat tarjima matnidagi “mantiqsiz kontekst”ning vujudga kelishiga sabab bo‘lgan:

“- Поклонись комитету, - сказал Бембл. Оливер смахнул рукой две-три слезинки и, не видя другой доски, кроме стола, к счастью, догадался поклониться ему”.

Misol sifatida keltirilgan ingliz tilidagi kalambur kontekstining A.Kravtsova tomonidan amalga oshirilgan quyidagi tarjimasida esa asliyat matnidagi kalamburning stilistik xususiyatlari ko‘rinmay qolgan bo‘lsa-da, uning moddiy-mantiqiy uzviyliklaridagi xosliklari asrab qolingaligi sabab tadqiqotchi tomonidan “ancha durustroq” bajarilgan o‘girma sifatida belgilaydi:

“- Поклонись совету, - сказал Бембл. Оливер смахнул две-три ещё не высохшие слезинки и, видя перед собой стол, по счастью, поклонился ему”.

Mazkur holatdagi asliyat kalamburi kontekstida vositaning vazifaviy xususiyatlardan ko‘ra uning moddiy-mantiqiy jihatlari ustunlik qilganligi sabab mutarjimning rus tilidagi nokalambur tarzidagi tarjimasi amlaliyoti o‘zini oqlay olgan. N.V.Yakimenkoning fikricha, “agarda asliyat kalamburida vazifaviy xususiyatlari uning moddiy-mantiqiy jihatlaridan ustunlik qilgandagina tarjimada vositaning semantik asosini qurbon qilib vositaning shaklini ya’ni, kalamburning adekvat stilistik funktsional xususiyatnini ta’minlovchi xossalarini asrab qolishning imkoniyati bo‘lar edi[12]”. Shuningdek, bizningcha yuqorida tahlillarga tortilgan asliyat kalamburi tarjima matnida uning semantik asosini o‘zgartirish yoki hamohanglikka asoslangan stilistik vositalar orqali izohlash ya’ni, kompensatsiya kabi usuli ham qo‘llanilishi imkoniyati mavjud.

O‘z navbatida L.A.Sazonova ham rus badiiy adabiyoti misolida ijodkorlar tomonidan turg‘un birliklarning tarkibiy qismlardagi o‘zgartirishlari natijasida yaratilgan kalamburlar tarjimasi masalalarini o‘rgangan. Tilshunos olima kalamburning voqelanishi asosini tashkil etuvchi mexanizmlarning juda murakkabligini inobatga olganda mazkur vositaning boshqa bir tilga o‘girish o‘ta qiyin vazifa ekanligini ta’kidlaydi. Turg‘un birliklar asosida qurilgan kalamburning tarjima amaliyoti masalalari borasidagi o‘zining quyidagicha tarjima usullari variantlarini[13]ko‘rsatadi. Ya’ni, olima tarjima tilida asliyat kalamburining ekvivalent izohini topish kabi tarjima usulini eng qulay vosita sifatida belgilaydi, ammo, tillardagi o‘ziga xos tafovutlar tufayli mazkur usul doim ham ish bermasligini ta’kidlaydi. Shuning uchun, L.A.Sazonova kalambur tarjimasida ko‘proq tasviriy tarjima usulidan foydalanish imkoniyatlarini ham o‘rgangan. Ma’lumki, mazkur amaliyot jarayonida asliyat kalamburiga xos stilistik xossalarining tarjima matnida g‘oyib bo‘lishiga olib kelsa-da, biroq moddiy-mantiqiy mazmunining, ba’zida esa asliyat turg‘un birligining pragmatik ta’sirining ham

[11] Ko‘rsatilgan manba. 1984, c.123.
[12]ЯкименкоН.В. 1984, c.179.
[13]Сазонова Л.А. Закономерности передачи каламбура при переводе художественной литературы: диссертация ... канд. филол. наук. – М., 2004. с. 103.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-5

qisman asrab qolinishi mumkin. Shuningdek, asliyatdagi kalambur vositasini boshqa tilga umuman tarjima qilmaslik ya'ni, uni tushirib qoldirish kabi holatlari ham keng tarqalgan hodisadir. L.A.Sazonova kalambur tarjimasida "muloqot pragmatikasini asrab qolishdagi samarali imkoniyat[14]i va eng qulay tarjima usuli sifatida funktsional yondashuvni belgilagan.

Ma'lumki, jahon tilshunosligi va adabiyotida olimlar kalambur hodisasini yumor doirasida o'rganganlar. Xususan, S.Attardo kalambur vositasini yumor va tilshunoslik fanlari nazariyalari nuqtai nazaridan kelib chiqib tadqiq etgan. S.Attardo o'z izlanishlarida kalamburning nafaqat shakliy balki mazkur vosita kontekstidagi unsurlarining o'zaro semantik uzviyliklari masalalarini ham o'rgangan. Zero, tilshunos olim kalambur birligi doirasida faollashuvchi turli mazmunlar ziddiyatlarining namoyon bo'lishini quyidagicha to'rt hil munosabatlar[15] ko'rinishida izohlaydi: 1) o'zaro dahlsizlik; 2) uzviylik; 3) "Mazmun 2 ning Mazmun 1 ga ta'siri" (S2 forces connotation on S1), 4) "Mazmun 1 ning Mazmun 2 ga ta'siri" (S1 forces connotationon S2).

Mazkur tushuntirishlarda kalambur kontekstining shartlanishidagi bitta yoki undan ortiq shaklan o'xshash birliklar asosida turlicha aloqadorlikdagi mazmunlarning voqelanishi ya'ni, bisotsiatsiya hodisasining namoyon bo'lishini kuzatilmoqda. Albatta, kalambur tushunchasining asoslari negizida turuvchi kognitiv jarayonlarni o'rganmasdan turib vositaning mohiyatini anglash mushkul. Demak, kalamburning nafaqat shakli, leksik, stilistik xususiyatlari va ta'siri balki vositaning kognitiv asoslarini o'rganish ham alohida ahamiyatga egadir. Vaholanki, kalambur kontekstida voqelanuvchi ikki yoki undan ortiq turli semantik ma'noviy maydonlarining kognitiv asoslari vositaning bisotsiativ xususiyatlari, ya'ni kalambur kontekstida qatnashuvchi ma'lum bir unsurning turli mazmunlar o'zaro munosabatlarida namoyon bo'ladi. Lug'atda[16] berilishicha bisotsiatsiya bu ma'lum bir obekt yoki g'oya asosida idrokdagi birvarakayiga turli, o'zaro bog'liq bo'lmagan sohalar to'g'risida voqelanuvchi mental tasavvurlardir. Xususan, A.Kestler bisotsiatsiya hodisasi ijodiy aktda turli shakllardagi (hazil, o'tkirlik yoki kalambur) yumoristik ta'sirning yaratilishda asosiy omil bo'lib xizmat qilishini ta'kidlaydi. Shuningdek, tilshunos olimning e'tirof etishicha kalambur bu, "ikki mazmunga ega bo'lgan ma'lum bir fonetik shaklning bisotsiatsiyasi[17]"dir. A.Kestler kalambur asosini tashkil etuvchi bisotsiatsiyani, uning zaminida yuzaga keluvchi nafaqat alohida belgilar balki, yaxlit mazmun-mohiyatga ega ma'noviy maydonlarni voqelantiruvchi ancha keng xodisa sifatida talqin etishni ma'qullaydi.

Kalambur mohiyatini yanada chuqurroq o'rganishda unga xos kognitiv asoslar va vazifalariga oid vositaning *stilistik ta'siri* xususiyatlarini belgilashni taqozo etadi. Xususan, A.Kestler[18]kalambur kontekstidagi unsurlarning o'zaro munosabatlaridagi kognitiv xosliklariga asoslanib, vositaning quyidagicha ta'siri belgilarini keltiradi: agarda unsurlar o'rtasidagi uzviyliklar to'qnashularvga asoslansa, bu jarayonning natijasi yumorning kelib chiqishiga sabab bo'ladi, sintezda esa – o'zaro tushunish bo'lib, qarama-qarshilikka asoslangan munosabatlarda – estetik kechinmalar kabi stilistik effektlar yaratiladi.

V.Z.Sannikov[19] ham kalambur pragmatik imkoniyatlarini o'rganib ulardagi *stilistik ta'sirning* o'ziga xosliklarini asosiy ikki mezonlarga ajratib ko'rsatadi:

[14]Сазонова 2004, с. 155.
[15]Attardo S. Linguistic Theories of Humor. – New York, Berlin: Mouton de Gruyter, 1994. c. 137.
[16]Merriam-Webster Online English Dictionary [Электронныйресурс]. – Режим доступа: http://merriam-webster.com
[17]Koestler A. The Act of Creation. – London: Hutchinson, 1964. p. 64.
[18]Koestler 1964, c. 50.
[19]Санников В.З. Каламбур как семантический феномен // Вопр. Языкознания №3. – М., 1995. с.59-62.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-5

1. kalamburning tarkibiy unsurlari o‘rtasidagi semantik munosabatlariga ko‘ra:

a) qo‘shimcha ma’noviy tovlanishlar doirasi juda boy bo‘lmagan hamohang so‘zlar mazmunlarining yig‘indisi “qo‘shnilar” - kalamburlari turining yuzaga kelishiga sabab bo‘lishi mumkin, masalan:

“На пикнике, под тенью ели

Мы пили более, чем ели”;

b) to‘qnashuvga asoslangan munosabatlar natijasida voqelangan kalamburlar bu “maska” kalamburlardir, masalan: “Хорошие филмы нам дороги, но и плохие подчас дороговаты”;

c) konteksti hisobida orttirilgan ma’lum bir qo‘shimcha ma’noning ustunligi sezilgan vositalar bu “oila” kalamburlardir, masalan: “И в нелётную погоду можно вылететь со службы”.

2) muallifning pragmatik mo‘ljali ya'ni, kitobxonga maqsad etilgan pragmatik ta’siriga ko‘ra kalamburlar quyidagicha stilistik ta’sir asoslarga ega bo‘lishi mumkin: a) nutqdagi kuchli ta’sirchanlik - “qo‘shnilar”; b) kitobxon taxminlarini chalg‘itish yoki komik shok holatiga tushirish orqali uni adashtirmoq - “maska”; c) komik ta’sir – “oila”.

Demak, kalamburning stilistik ta’siri mezonlari mazkur vositadagi tarkibiy unsurlarining o‘zaro semantik munosabatlari va muallifning pragmatik mo‘ljali kabi jihatlari ya’ni, kalambur kontekstining shartlanishidagi o‘ziga xosliklaridan kelib chiqib belgilash imkoniyatlari kuzatiladi. Kalambur matnida birliklarning turli rang-barang mazmunlari faollashib hamda ulardagi barcha ma’noviy tovlanishlaridagi tafovutlarning tatbiq etilishi uchun qulay kontekst sharoiti mavjuddir. Shuningdek, Shekspir dramalaridagi kalambur vazifalarini ham vosita kontekstining shartlanishi xususiyatlari asosida o‘rganish maqsadga muvofiq.

Ma’lumki, neytral kontekstda qatnashuvchi polisemantik birlikning alohida bir mazmuni yaqqolashadi. Kalambur kontekstida esa polisemantlarning ko‘p ma’nolilik xususiyati saqlanib qolinadi va bundan tashqari mazkur vosita tarkibiy unsurlarning mazmunlariga xos yoki xos bo‘lmagan kutilmaganda yangi, noan’anaviy ma’noviy tovlanishlarni qo‘zg‘atib ularni yanada rag‘bantiradi.

Binobarin, kognitiv leksika fani nazariyasiga oid leksik birliklar semantikasi ortida ma’lum bir belgilanuvchi voqelik lahzalari to‘g‘risidagi bilimlar yig‘indisi ya’ni, freymlar[20]zohir bo‘lishi e’tirof etilmoqda. Shuningdek, kalamburning voqelanishi negizida hosil bo‘luvchi fragmentlar mundarijasi ham mazkur stilistik vosita kontekstida shartlanuvchi o‘ziga xos freymlar ifodasini tashkil etadi.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida keltirilgan fikrlarga asoslanib, Shekspir dramalaridagi ma’lum yumoristik-pragmatik ta’sirga erishmoqlik maqsadida qo‘llanilgan stilistik - konvergent kalamburlar kontekstini o‘zbek va rus tarjimalarida aks ettirilishidagi o‘ziga xos xususiyatlari tadqiq etildi.

Adabiyotlar ro‘yhati

1. Сковородников А.П. Игра как приём текстопорождения. Красноярск: Мир. 2010. 341 с.
2. http://svr-lit.ru/svr-lit/articles/morozov/yazyk-i-stil-shekspira.htm
3. https://shakespeare.folger.edu/shakespeares-works/king-lear/entire-play/
4. Shekspir V.Tanlangan asarlar. Besh jildlik. Qirol Lir / Rus tilidan G‘afur G‘ulom tarjimasi. 2-jild. –Toshkent: Adabiyot va san'at, 1983.– 472. b.
5. https://predanie.ru/book/218131-korol-lir-per-boris-leonidovich-pasternak/

[20]*Беляевская Е.Г.* Типология фреймов конструирования языковой системы и дискурса // Когнитивные исследования языка №34, 2018. – С. 346-349.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-5

6. Ахмедова Ш.Н. Саид Аҳмад ҳажвиётида бадиий маҳорат. Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1994. – 134 б.

7. Longman Dictionary of Contemporary English. – Pearson, 2007. p. 150.

8. Gr. Ritchie. The Linguistic Analysis of Jokes. – London and New York: Routledge, 2014. p. 109.

9. Гальперин И.Р. Очерки по стилистике английского языка. – М.: Изд-волитературы на иностранных языках, 1958. с. 47.

10. Беляевская Е.Г. Моделирование стилистических приемов в дискурсе //Вестн. Моск. гос. лингвист. ун-та: вып. 17 (677). Сер. Языкознание. – М.: МГЛУ, «Рема», 2013. с. 8.

11. Беляевская Е.Г. Типология фреймов конструирования языковой системы и дискурса // Когнитивные исследования языка №34, 2018. – С. 346-349.

12. Minsky M. A Framework for Representing Knowledge (Technical Report).– Cambridge: Massachusetts Institute of Technology, 1974. p. 56.

13. Fillmore Ch.Frames and the Semantics of Understanding // Quaderni di Semantica Vol. VI № 2, 1985. p. 122.

14. Болдырев Н.Н.Когнитивная семантика: Курс лекций по английской филологии. – Тамбов: Изд-во Тамб. ун-та, 2001. Изд. 2-е, стер. с. . 60-63.

15. Салыгина Э.В. Стилистика англоязычного газетного фельетона: когнитивный, прагматический и лингвостилистический аспекты: диссертация ... канд. филол. наук. – М., 1993. с. 65.

16. Салыгина 1993, с. 70, 102.

17. Орлецкая Л.В. Фразеологизмы как средство создания юмористического эффекта в тексте: диссертация ... канд. филол. наук. – М., 1994. с. 42.